

Toshkent xalqaro Vestminster universitetida bo'lib o'tgan davra suhbatlari to'g'risida

5-dekabrda Toshkent xalqaro Vestminster universitetida "O'zbekistonning Shanxay hamkorlik tashkilotidagi o'rni" mavzusida davra suhbatlari tashkil etildi. Tadbirda ma'ruzachi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti direktori V.I.Norov ishtirok etdi.

Ma'ruza davomida Shanxay hamkorlik tashkilotining tashkil etilishi tarixi, O'zbekistonning ushbu xalqaro institutning tashkil etilishidagi o'rni, tashkilot oldida bugungi kunda turgan ustuvor masalalar haqida fikr almashildi. V.Norov shuningdek bugungi kunda mazkur tashkilot doirasida O'zbekiston ilgari surayotgan tashabbuslar, Markaziy Osiyoda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev olib borayotgan ochiq, pragmatik tashqi siyosati natijasida yuzaga kelayotgan yangi siyosiy muhit haqida ham ta'kidlab o'tdi. Tadbir baxs-munozara shaklida o'tdi

va universitet talabalari o'zlarini qiziqtirgan savollarga javoblar olishdi.

